

Kitob-mening do‘stim

Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma’naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqeyi hamda ahamiyatini saqlab qolishga ehtiyoj sezilyapti. Avvalo, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish borasida ishlar olib borilmoqda. Shu inobatga olgan holda Yer resurslari va kadastr fakulteti talabalari o‘rtasida “Kitob-mening do‘stim” shiori ostida tanlov o‘tkazildi. Tanlovda ko‘plab talaba yigit qizlarimiz qatnashishdi. Tanlov ohirida yahshi qatnashgan talabalarga estalik sovg‘lari topshirildi.



Dotsent O’tkir Islomov axboroti

Universitet matbuot xizmati